

TURLI MINTAQALARDAN KELTIRILGAN GOLCHTIN ZOTIGA MANSUB SIGIRLARNING SUTDORLIK KOEFFITSIENTINI O'RGANISH

Ilmiy rahbar: Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,

Bakalavr: Berdiyev Maqsetbay Tórebayevich

Bakalavr : Eshniyazova Jaynaxan Siypatdin qızı

Bakalavr : Jañabaev Timur Baxadir uli

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Bu moqolada turli mintaqalardan keltirilgan golchtin zotiga mansub sigirlarning sutdorlik koeffitsientini o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Sog'in sigirlarning genetik kelib chiqishi, zotdorligi, sigirlarning tirik vazni, sut yog'i chiqimi, sut oqsili chiqimi.

Kirish. Sut inson organizmi uchun qulay bo'lgan ozuqa manbaiyi hisoblanadi, sutni iste'mol qilgan insonlar kam kasal bo'lishgan. Ular doimo bardam bo'lib, mehnat qobiliyatlarini keksalikda ham saqlab qolishgan. Chunki sutning kimyoviy tarkibi juda boy bo'lib, inson uchun qimmatli bo'lgan 100 ga yaqin moddalarni saqlaydi. Shuning uchun ham qadimdan sut iste'molidagi birinchi oziq hisoblanadi.

Tatqiqot maqsadi. Bugungi kunda sigirlarning zoti, zotdorligi, laktatsiyasining soni va konstitutsiyasining tiplaridan qat'iy nazar, ularni sut mahsuldorligi bo'yicha baholaganda olingan sutni 4 % li sutga aylantirish uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Sog'in sigirlarning genetik kelib chiqishi, yoshi va oziqlantirish sharoitidan qat'iy nazar, ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda har 100 kg. tirik vaznga to'g'ri keladigan sut mahsulotini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham biz golichtin zotiga mansub sigirlarning har 100 kg. tirik vazni hisobiga sut mahsuldorlik ko'rsatkichlarini hisoblab qo'yidagi jadvalga keltirdik.

Tatqiqot natijalari. Jadval ma'lumotlaridan shu narsa aniqki, tajriba guruhla golichtin zotiga mansub sigirlarning sut mahsuldorligi yuqori darajada bo'lganligi uchun ularning sutdorlik koeffitsientining ko'rsatkichlari ham yaxshi bo'lgan va sezilarli darajada guruhlararo farq kuzatilgan. Sutdorlik koeffitsienti I guruhdagi Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarda $901,1 \pm 0,55$ kg, II guruh Daniya seleksiyasiga mansub sigirlarda $1058,3 \pm 0,28$ kgni tashkil qilgan, sutdorlik koeffitsienti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, III- guruhdagi golichtin zotili Germaniya seleksiyasiga mansub sigirlarda $1371,0 \pm 0,55$ tashkil qilgan.

Tatqiqot manbai va usullari. Bizning tajriba o'tkazgan obekt Samarqand viloyatidagi “Siyob-Shavkat-Orzu” fermer xo'jalikda tajriba o'tqazildi. Fermer xo'jaligi ilg'or xo'jalik bo'lib ozuqa bazasi mustahkam va bir xil oziqlantirish tipi tashkil qilingan.

Har 100 kg. tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut, 4 % li sut miqdori, sut yog‘i chiqimi, sut oqsili chiqimi ko‘rsatkichlarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni e‘tiborga olib, biz ushbularni o‘rganib, jadvalga kiritdik.

1-jadval

Tajribadagi sigirlarining sutdorlik koeffitsienti. ($\bar{x} \pm S_x$)

Guruhlar	Sigirlarning tirik vazni,kg	Laktatsiyadagi haqiqiy sut miqdori, kg	Sutdorlik koeffitsienti, kg	Har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarildi.		
				4% li sut miqdori,	Sut yog‘i chiqimi kg.	Sut oqsili chiqimi, kg
I	446,6±5,1	4024,7±45,1	901,1±0,55	860,7±0,52	34,4±0,12	30,0±0,39
II	471,4±8,5	4989,0±80,6	1058,3±0,28	1016,1±0,41	40,6±0,13	35,3±0,48
III	651,9±16,5	8937,9±137,5	1371,0±0,55	1357,1±0,42	54,3±0,44	46,2±0,64

Xulosa

Har 100 kg. tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut yog‘i va sut oqsili chiqimi bo‘yicha ham III-tajriba guruhidagi sigirlar o‘z tengqurlariga nisbatan ustunlik qilishgan. Shunday qilib, turli xil genetik kelib chiqishiga ega bo‘lgan sigirlarning sutdorlik koeffitsienti va 100 kg. tirik vaznga ishlab chiqarilgan 4 % sut, sut yog‘i va sut oqsili miqdori bo‘yicha sof zotli Germaniya seleksiyasidagi bo‘lgan sigirlar ustunlik qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Amirov Sh.Q., Qo‘ziboev G‘.O. O‘quv-tajriba xo‘jaligidagi urchitilayotgan turli zotga mansub sigirlarning ayrim ko‘rsatkichlari. Qishloq xo‘jaligida yaratilgan innovatsion ishlanmalar. Katta ilmiy xodim-izlanuvchi va yosh olimlarning to‘plami. I-qism. Samarqand. 2015. 211-213 b.
- 2.Adushinov D. Effektivnost golshtinizirovannogo cherno - pestrogo skota v vostochnoy Sibiri. //Molochnoe i myasnoe skotovodstvo. 2006. №3. s. 17-19.
- 3.Antal L. Razmshleniya na temu: Bmk - polavina stada. //Molochnoe i myasnoe skotovodstvo. 2004. №1. s. 16-21.
4. Sattorov F. Qora -ola zotli sigirlarini seleksion belgilarini golshtin zoti bilan takomillashtirish yo‘llari. Qishloq xo‘jaligida yaratilgan innovatsion ishlanmalar. Katta ilmiy xodim-izlanuvchi va yosh olimlarning to‘plami. I-qism. Samarqand. 2015. 249-251 b.